


# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
# BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

ESMT BERLIN · AJOU UNIVERSITY 1973 · HANDONG GLOBAL UNIVERSITY · POLIMI GRADUATE SCHOOL OF MANAGEMENT · UNESCO · uniTwin · SES Senior Experten Service DER WELT EXPERTEN DIENST · PRME an initiative of the United Nations Global Compact · JICA · Think Ahead ACCA · LSB Luxembourg School of Business · ICA INTERNATIONAL COMPLIANCE ASSOCIATION

# REJA:

- GENERATIV SUNIY INTELLEK NIMA?
- PROMPT YOZISH SAN’ATI. 100+ FOYDALI PROMPTLAR BAZASI.
- O’RGANISH REJIMI (STUDY MODE)
- QAYSI SI VOSITASI NIMA UCHUN QULAY.
- REKLAMA YOKI MAXSULOT KARTOCHKASI UCHUN PROFESSIONAL RASM TAYYORLASH.
- ODDIY VEBSAYTLARNI 10 DAQIQADA TAYYORLASH.

Gemini

# Generativ Sun'iy Intellekt



Generativ AI — u "ijodkor":
U o'rganganlari asosida mutlaqo yangi matn, rasm, musiqa yoki hatto kompyuter kodini yarata oladigan suniy intellekt.

>>

# Prompt engineering






## Prompt yozish san'ati

"Prompt yozish san'ati" yoki "Prompt injiniringi" bu – sun'iy intellekt (SI) modellari (masalan, Gemini, yoki ChatGPT, Midjourney) bilan muloqot qilishda eng samarali va aniq natijani olish uchun yoziladigan so'rov (prompt)larni tuzish mahoratidir.

- QANCHALIK ANIQ SO'RASANGIZ, SHUNCHALIK TO'G'RI JAVOB OLASIZ.

# Prompt



## Eng yaxshi prompt uchun 4 qadam:

### ROLNI ANIQLASH (ROLE)

AI ga qanday shaxs yoki mutaxassis bo'lishni buyuring. Bu javobning uslubi va ohangini belgilaydi.

Misol: "Siz **mashhur tarixchi olim** rolidasiz..."

Misol: "Siz katta bizneslar uchun **marketing bo'yicha mutaxassis** sifatida javob bering..."

### VAZIFANI BELGILASH (TASK)

AI dan aynan nima qilish kerakligini aniq ayting.

Misol: "...O'zbekistonning XV asr tarixiga oid 3 ta asosiy voqeani **qisqa xulosa qilib bering**."

Misol: "...Berilgan matnni **rasmiy xat uslubi**ga o'tkazing."

### KONTEKSTNI KIRITISH (CONTEXT)

Natija qanday auditoriya uchun, qanday cheklovlar bilan yaratilishi kerakligini tushuntiring.

Misol: "Javobni **10 yoshli bolaga tushunarli** tilda yozing."

Misol: "Javobni faqat **eng so'nggi ma'lumotlarga asoslanib** bering."

### FORMAT VA USLUBNI BELGILASH (FORMAT/TONE)

Javob qanday shaklda bo'lishi kerakligini ko'rsating.

Misol: "Javobni **jadval shaklida** bering, nuqtali ro'yxat (bullet points) bilan emas."

Misol: "Uslub **optimistik va professional** bo'lsin."




TO‘G‘RI PROMPT

Yarim to'ldirilgan muzli stakanda, old fonda Pepsi bankasi turgan tasvirni yarat. Sahna yorqin yozgi quyosh nurlari bilan yoritilgan ochiq havoda, masalan, plyaj partiyasida yoki festivalda bo'lsin. Orqa fonda xira ko'rinishda xursand yoshlar ko'rinsin. Ranglar palitrasi yorqin, jonli va tetiklantiruvchi bo'lsin. Muz va stakan ustidagi kondensatsiya juda aniq, 'krisp' detallar bilan ko'rsatilsin. Uslub yuqori sifatli reklama fotosurati. Dof (Depth of Field) effekti bilan, fokus Pepsi va stakanda bo'lsin. Tasvir energiyani, tetiklantiruvchi ta'sirni va quvnoq kayfiyatni yetkazsin.




ODDIY PROMPT

Muzli Pepsi ichimligining yozgi reklamasi uchun rasm chizib ber.

# Qaysi SI vositasi? Nima Uchun?

## RASM YARATISH UCHUN

Nano Banana (Gemini), ChatGPT, Canva

## MATN BILAN ISHLASH VA SUHBATLASHISH UCHUN

**ChatGPT, Gemini, Perplexity, Grok** – judayam katta bilim doirasi, so'nggi malumotlar bilan javob bera oladi

## OVOZ BILAN ISHLASH

**Elevenlabs, HeyGen** – ovoz kloni yaratish, tajrimalar, avtomatik ovoz berish imkoniyatini beradi, pullik.

## KOD YOZISH, ILOVALAR YARATISH

**Claude, Codex, Cursor, Google AI Studio** – Aynan kod yozish uchun kuchli modellari mavjud, oddiy 1 sahifali saytlar uchun ham qulay.

# E’TIBORINGIZUCHUN RAHMAT !




**Kontakt ma’lumotlari:**

Email: info@gsbe.uz
Veb sayt: www.gsbe.uz
Adres: Mirobod tumani, Mirobod ko‘chasi, 25
100060, Toshkent, O‘zbekiston